



## **TASVIRIY SAN’ATNING ADABIYOT BILAN INTEGRATSIYASI. RAMZIYLIK**

**Norchayev Ravshan Toshtemirovich,**  
*Kamoliddin Behzod nomidagi milliy  
rassomlik va dizayn instituti dotsenti*

**Bobomurodova Maftuna Ravshan qizi,**  
*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy  
rassomchilik va dizayn instituti magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207524>

*“So‘zlar va qonunlar emas, balki belgilar va ramzlar dunyoni boshqaradi.”*  
*Konfutsiy*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada adabiyot va tasviriy san’atdagi ramzlar O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi obrazlar talqinida ko‘rib chiqilgan. Romanda an’anaviy Ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (bulut, buloq, chaqmoq va b) dan ramziy tasvir uchun foydalanilgani tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy san’at, adabiyot, rang, olma guli, gul ramzi, ruhiyat, na’matak guli, archa, abadiylik ramzi, daraxt ramzi.

Tasviriy san’at asar yaratishda adabiyotning o‘rni beqiyos. O‘sha davr kishilarining hayotiga oid voqelikni ochib bera olish mahorati ijodkordan asar bilan bog‘liq barcha materiallarni o‘rganish va chuqur his etishni talab etadi. Ijodkorni (rassom) ijodiy bilimni tanlangan ranglari orqali ham bilish mumkin. Rang hissiyot uyg‘otishidan tashqari, rassomlar o‘z rasmlarida kayfiyat va atmosferani yaratish uchun ham foydalanadilar. Rasmning asosiy ekspressiv vositasi rang bo‘lib, tomoshabinning rasmni umumiy idrok etishiga ta’sir qiladi. Uning muhim tafsilotlarga e’tibor berishga imkon beradi. Rasmlarda asosiy va ikkinchi darajali ranglar mavjud. Uchta asosiy rangga (*sariq, qizil, ko‘k*) ega bo‘lgan rassom boshqa har qanday rangni topishi mumkin.

Simvolizm - adabiyot, rasm va san’atning boshqa turlaridagi badiiy harakat. Simvolik asarlar tanish so‘z va narsalarga chuqurroq qarashni shakllantirish, shuningdek, kamaytiruvchi va sirli uslublar bilan tavsiflanadi. Simvolist rassomlar o‘z rasmlarida ob’ektiv dunyo orqasida tush va vahiylardan to‘qilgan boshqa, ifodalab bo‘lmaydigan haqiqat yashiringan degan g‘oyani e’lon qildilar. Simvolizm san’ati ikki: narsa va g‘oyalar dunyosiga ajraladi. Shuning uchun tasviriy san’atda ramz bu olamlarni bog‘laydigan shartli belgiga aylanadi. [1]



Simvolistik dunyoqarashning xususiyatlari 18-19-asrlar oxirida romantizm deb nomlangan badiiy oqimga mos ravishda rivojlandi. “Ramz - bu tasvir, - deb yozgan [Andrey Bely](#), - rassomning tajribalari va tabiatdan olingan xususiyatlarini birlashtirgan. Shu ma’noda har bir san’at asari mohiyatan ramziydir... Ramz tushunchasi ramziy bilishning bog‘lovchi ma’nosini bildiradi... San’atda tasvirni timsolga ko‘tarish orqali g‘oyalarni idrok qilamiz. Simvolizm - g‘oyalarni tasvirlarda tasvirlash usuli. San’at niqoblangan (*klassik san’at*) yoki ochiq (*romantizm, neoromantizm*) bo‘lishi mumkin bo‘lgan simvolizmdan voz kecha olmaydi” [2].

Adabiyotda ham asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi mavjuddir. Ramz – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli bo‘lib, ko‘p ma’nohiligi bilan ajralib turadi. Rassomlar ham asar ustida ishlayotganda ramzlardan foydalanadi. Masalan, gul – go‘zallik, ma’shuqa; bulbul – oshiq; oq-yorug‘lik, kumush; qora – zulmat, motam; sariq – quyosh, oltin; ko‘k – osmon, havo; qizil – olov, qon; yashil – tabiat, o‘simlik va hokazo. Ushbu ramziy belgilar barcha millat madaniyatlarida birlamchi hisoblanadi. Ijodkorlar an’anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (*masalan, bulut, buloq, chaqmoq va boshqalar*)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida ijodkor maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma’noga ega bo‘ladi.

Turli xalqlarga oid san’at namunalarida daraxt tasviri mavjud. Ramz sifatida daraxt hayot, o‘shish, yangilanish va qayta tug‘ilishni anglatadi. An’anaviy san’atdagi daraxt, birinchi navbatda, kelajakka umid qilish, turmush tarzining asosiga aylangan madaniy qadriyatlarni saqlash bilan bog‘liq. Qadim zamonlardan beri terak har doim uyg‘unlik va yoshlik, kuch va go‘zallik timsoli, ayollar taqdiri ramzi bo‘lib kelgan. Adib romanda “mahalla boshidagi baqaterak”ka ko‘proq urg‘u beradi. “... Bir kuni (birinchi kursda o‘qir edik) Muzaffar odatdagidek baqaterak tagida xayrlashib ketdi.” Ko‘pincha daraxt inson uchun cheksiz aziz bo‘lgan ma’lum bir joyning tasvirini anglatadi. Masalan, Muzaffar hikoyasidagi ushbu parcha bunga misol bo‘ladi. “... Axir bu ... o‘sha baqaterak-ku! Har safar Munavvarni kuzatib kelganimda panasiga o‘tib, xayrlashadigan “o‘zimiz”ning terak! Kecha Munavvarga Ergash bilan kelib arralab tashlaymiz degan daraxtim.”[3.551-b.]

San’atning shakli, mavzusi va mazmuni din bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, cherkovning qat’iy nazorati ostida edi. Shuning uchun rassomchilikda har bir rassom amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalar va texnikalar - qonunlar mavjud bo‘lgan. Tasvirlarning turlari, kompozitsion sxemalar, simvolizm cherkov tomonidan tasdiqlanib, ommaga ko‘rsatilgan. Ammo kanon o‘rta asr rassomining fikrlariga

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



umuman to‘sqinlik qilmadi, balki uni tafsilotlarga ko‘proq e‘tibor berishga majbur qildi. 16-asrning eng oxirida tasviriy san’atda o‘ziga xos janr paydo bo‘ldi, unda rassomlar musiqiy kompozitsiyalar, cholg‘u asboblari rasm va gravyurlarda aniq takrorlashga g‘ayrioddiy qiziqish ko‘rsatdilar. Ushbu janr tomoshabinni qadimgi yevropalik rassomlar musiqa asboblari bergan ramziy ma‘nosi haqida o‘ylashga undadi.



*Vigee - Lebrun Mari - Luiza – Elizabet (1755-1842)*

*Madam de Stael portreti Korin.*

*Xolst. Moybo ‘yoq. 140x118 sm. San’at tarixi muzeyi, Jeneva*

17-asrda Vanitas haqidagi falsafiy g‘oya mashhur bo‘ldi. (*Vanitas* (lotincha *vanitas* -bema‘nilik, zaiflik)- barokko rasmining janri, allegorik natyur mort yoki boshqa kompozitsiya bo‘lib, uning markazida an’anaviy ravishda odamning bosh suyagi, qum soati, globus, yonayotgan sham, qadimgi tome yoki o‘limning boshqa atributlari va inson hayotining zaifligi. Shunga o‘xshash rasmlar G‘arbiy Yevropa san’atida 16-17-asrlarda paydo bo‘la boshladi.) Bu yerda musiqiy ramzning o‘rnini bosh suyagi, o‘chirilgan sham (yoki hali ham yonayotgan sham) va gullar (*barglari to‘kilgan*) egalladi. Ushbu oxirgi belgi ko‘pincha 17-asrning klavesin (*Klavsen (fransuzcha clavecin; italyanacha cembalo, clavicembalo) — qirqimli klaviaturali torli cholg‘u asbobi*) ustalari tomonidan o‘z asboblari bezak sifatida tanlangan. Ba’zi rasmlar – “O‘lim allegoriyasi” (yoki *Vanitas*) deb nomlanadi. [6]

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Romanda adib olma guliga ham ko‘p bora murojaat qilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan: “... Gagarin kosmosga uchganidan keyin bir haftalar o‘tganida Minavar sochiga olma gulining shoxchasini qistirib keldi...”[3.421-b.] “...Beixtiyor papkamni parta ustiga qo‘yib, yoniga o‘tirdim. Dimog‘imga olma gulining hidi urildi...” [3.422-b.] “Gullagan olma tagidagi temir karavotda ... yotibman. Ohista shamol esadi. Nafarmon gullar shivirlab ustimga yog‘iladi...”[3.506-b.]



*Villij Piter.*

*O‘lim va shon-shuhrat allegoriyasi (parcha)*

*1660-yil*

Olma guli romanning ko‘p joyida takrorlansada, faqatgina Muzaffar hikoyasida keltiriladi. Ko‘pgina xalqlar san‘atida **Olma guli** dekorativ motif sifatida topilgan. U ayol go‘zalligini anglatadi. Olma guli yumshoq pushti rangi tufayli ko‘pincha “sevgi guli” deb ham ataladi. Muzaffarning tushi orqali ham buni ko‘rishimiz mumkin. “... Umrin bino bo‘lib birinchi marta rangli tush ko‘rdim! Kattakon shaftolizormish. **Shaftolilar pushtirang gullab** yotganmish... Bir mahal shaftolizor orasidan Munavvar chiqib kepti. Sochiga **olma guli** taqib olibdi. Egnida shaftoli guliga o‘xshash pushtirang ko‘ylak...” [3.424-b.] Shaftoli - yoshlik ramzi. Shaftoli guli esa bahor, ayollik jozibasi, muloyimlik, osoyishtalik, to‘y, shuningdek, bokiralik va poklik ramzidir.[4]

17-asr davomida nashr etilgan emblematik to‘plamlar rasmlarni o‘qishda yaxshi yordam berdi. Masalan, qimmatbaho kumush idishlar boylikni ifodalagan. Oq nilufar

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



poklik, oq va qizil atirgul esa sevgi, lolalar o‘tkinchi go‘zallikni, qurigan gul tuyg‘ularning yo‘qolishiga ishora qildi. O‘rta asrlar madaniyatidan meros sifatida 17-asr natyurmorti ramziy narsalarni tasvirlash an‘anasini meros qilib oldi. XVII asr golland rassomi Yan de Ximning (1606-1683/1984) “Memento mori” natyurmorti bunga misol bo‘ladi. Ushbu rasmga birinchi qarashda go‘zal guldastasiga ko‘zingiz tushadi. U rasmning deyarli butun maydonini egallaydi. Ammo rassom guldastaning yoniga bosh suyagi, qobiq, g‘ijimlangan va yirilgan qog‘ozni aniq “Memento mori” (“O‘limni esla”) yozuvi bilan qo‘yganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqiruvdan tashqari, bosh suyagi ham bizga o‘limni eslatadi. Ushbu rasmning barcha tafsilotlari o‘lim va uning muqarrarligi haqida gapiradi. E‘tibor bersak, Jan de Xem so‘lib borayotgan guldastani tasvirlagan. So‘layotgan guldasta o‘z-o‘zidan hayotimizning mo‘rtligini anglatadi. Bundan tashqari, rassom ko‘plab qurt va hasharotlarning gulbarglar, poya va barglarini yeyayotganini diqqat bilan tasvirlagan. Qurtlar parchalanish va halokatning, chivinlar zararni, kapalaklar - o‘tkinchilik, umrning qisqaligini bildiradi. Ushbu natyurmort kompozitsiyasining deyarli barcha elementlari, undagi turli xil ranglar to‘plami dunyoviy intilishlar va tashvishlar vaqtinchalik ekanligini anglatadi. [6]



*Ян Давидс де Хем  
“Мементо мори”  
Холст. Мойбўёқ.*



*Дрезден галереяси.*

Rassomlar o‘simliklar yordamida inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadilar. Asarlarida ekologik va ijtimoiy muammolarni ko‘taradilar... Masalan, ba’zi kartinalarda gullar tasvirini ko‘ramiz. Gul ramzi har doim turli mamlakatlar san’atida mavjud bo‘lgan. Rassom gullarni tasvirlash orqali tomoshabinlarga o‘zining xarakteri, hayotga, odamlarga, tabiatga bo‘lgan munosabati haqida gapirib beradi... Rassom Jon Everett Millais gullarning ramziy tilidan foydalanib, Shekspirning “Gamlet” pesasi syujeti asosida “Ofeliya” kartinasi yaratgan. Kartina daryo va daryo qirg‘oqlaridagi o‘simliklarning batafsil tasviri bilan mashhur. Rassom Ofeliyani xolstda gullar bilan o‘ralgan holda joylashtirgan. Bu gullarning barchasi ramziy ma’noga ega. **Sohildagi qichitqi o‘tlar** – dard; **ayva gullari** – soddalik; **romashka** – aybsizlik; **fialka** – poklik va erta o‘lim; **pansies** – behuda sevgi haqidagi fikrlar; **binafsha** – sadoqat; **oq va pushti atirgullar** – Ofeliyaning go‘zalligi. Haqiqiy hayotda bu gullarni birgalikda ko‘rish mumkin emas, chunki ular yilning turli vaqtlarida gullaydi. (*Кренива на берегу – бол; Лютики – наивност и простота; Ромашки – невинност; Ожереле из фиалок – чистота и ранняя смерт; Анютины глазки – думы о напрасной любви; Незабудки – преданност; Розы, белые и розовые – красота Офелии. В реальной жизни встретит вместе эти цветы невозможно, так как они цветут в разное время года.*) [5]



*Jon Everett Millais.  
Xolst. Moybo‘yoq.*



Ammo san’at muhitida guldan ramz sifatida foydalanish bundan ancha oldin boshlangan. Hatto Qadimgi Misrda ustunlar, ibodatxona va piramidalar devorlari yangi hayotda tirilish ramzi bo‘lgan muqaddas lotus tasvirlari bilan bezatilgan. Qadimgi Yunonistonda do‘lana guli sevgi ramzi bo‘lgan. Xristian san’atida qizil chinnigullar Iso Masih tomonidan to‘kilgan azob va qonning ramzi hisoblangan. Misrda nilufar guli xushxabar (*boshqa manbaga ko‘ra, u jannatdan haydalgan Momo Havoning ko‘z yoshlaridan paydo bo‘lgan*) va oq atirgul ilohiy sevgi ramzi bo‘lib tasvirlangan. Shuningdek, Qadimgi Misrda nilufar guli lotus bilan birga unumdorlik ramzi sifatida ham qo‘llanilgan. Ushbu gulning quyidagi tavsifi mavjud: uning to‘g‘ri poyasi aql-zakovatni, nozik hidi ilohiylikni, osilgan barglari hayoni va oq rangi iffatni ifodalaydi. [7]

Adib romanda qahramonlar ruhiyatini ochishda na‘matak gulidan alohida foydalanadi. Masalan, Robiya hikoyasida Ra‘noning xiyonati to‘g‘risidagi o‘y-xayollari orasida na‘matak gulini ko‘rib qoladi. “Ana, na‘matak gullabdi. ...suvga mo‘ralab turgan och pushti gullar orasida bulturdan qolgan yirik-yirik na‘matak donlari ko‘zga chalinadi. ... Lekin bulturigi mevasidan ko‘ra bu yilgi guli ko‘proq.” [3.257-bet] O‘zbek tilining izohli lug‘atida na‘matakka “yovvoyi atirgul bo‘lib, uning o‘tmishdoshi hisoblanadi” deb ta‘rif beriladi. Ramziy ma‘noda u bog‘ atirgulgiga o‘xshab, sevgini anglatadi. Lekin romantik emas, balki azob-uqubat, javobsiz tuyg‘u yoki qandaydir baxtsizlik, yengib bo‘lmaydigan to‘siq bilan bog‘liq sevgi. Bu narsani Muzaffar hikoyasida ham ko‘rishimiz mumkin: “Na‘matak guli- ku! Loyqa suvda qalqib kelayapti. Na‘matak gullabdi-da! ...” [3.526-b.] Bu yerda hamma Muzaffar bilan Munavvarning sevgisiga qarshi chiqqandagi vaziyat na‘matak guli orqali ko‘rsatib berilgan.

Romanda Robiya o‘zining “tug‘ma porok” ekanligi hamda musichadek beozor dadasining to‘shakka mixlanib qolganligini hikoya qiladi. “... Oradan ko‘p o‘tmay dadam uzildi...” Shundan keyin ular yangi uyga ko‘chganini va yangi hovlisini tasvirlaydi. “... Bu hovli ham avvalgisidan katta emas. Faqat deraza oldida bir to‘p **archa** bor...” [1.498-b.] Archa yilning to‘rt faslida ham yashil bo‘lib turadi. Shuning uchun manbalarda abadiylik ramzi bo‘lib keladi. Archa daraxti abadiy yoshlik, jasorat, sadoqat, uzoq umr va qadr-qimmatni ifodalaydi. “... Shamol bo‘ldimi-yey, deraza tagidagi **archa** tun bo‘yi tebranib, ingrab chiqdimi-yey.” [3.500-b.] Bu yerda esa Robiyaning homilador bo‘lib qolganiga ishora qilinadi. Romanni o‘qir ekanmiz archa daraxti tasvirini faqat Robiya hikoyasida uchratishimiz mumkin.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Bu roman katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Romanda tasvirlangan voqea-hodisalarni o‘zlaringiz yashab turgan davr bilan xayolan qiyoslab ko‘rishingiz foydadan holi emas.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. Белй А. Арабески. - М., 1911. - Б. 8
3. О‘. Нoшимoв. “Ikki eshik orasi” romani.
4. Большая российская энциклопедия.

